




E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

	characteristics	
Saidov Kh.Sh.	Economizing language resources on the example of the word formation of modern English slang	132
Sharipova D.Sh.	The linguistic relationship of symbols	136
Абдувахабова Д.Н.	Тилшуносликда эмотивлик, модаллик ва баҳолаш категорияларининг ўзаро боғлиқлиги	143
Джалилова З.Б.	Инглиз ва ўзбек тилларида гул номларининг лексик-семантик майдони ҳамда лингвопоэтик хусусиятлари	147
Ибрагимова Н.А.	Аутентик матн тушунчаси, турлари ва таснифи	154
Қаршиев Н.Т.	Қорақўлчилик терминларининг ясаиш усуллари	159
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Dialektik materializm va tilshunoslik metodologiyasi	168
Fayziyeva A.A.	Inson his-tuyg'ulariga oid konseptual modellar	176
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Axmedova S.H.	Ingliz va o'zbek ertaklarida epik ko'makchilar talqini va tasviri	181
Davronova Sh.G'.	Isajon Sultonning "Bibi Salima" hikoyasida milliylik ifodasi	187
Djumayeva N.	Ingliz hamda o'zbek xalq ertaklaridagi sehrlı buyumlar orqali milliy madaniyatning ifodalanishi	192
Karimova D.H., Ahmadova X.N.	Aka-uka Grimm ertaklari o'zbekcha tarjima variantlarining shakllanish omillari va paradigmatic belgilari	198
Khayrullayeva N.N.	The analysis of the setting in the eco-fiction novels "Time is a river", "Sweetgrass", "The summer of lost and found" by American writer Mary Alice Monroe	203
Nodirova F.X.	Sa'dulla Hakim she'riyatida adabiy g'oya va tahlil	209
Rakhmatova M., Rakhmonova J.	XXI Century American prose: analysis of "The hunger games" by Susanne Collins	214
Xamdamova S.B., Tilavova N.	Charlz Dikkensning "Nikolas Niklbining hayoti va sarguzashtlari" romani kompozitsiyasi va tarbiya romanining janr xususiyatlari	219
Jo'rayeva M.J.	Hilda Dulitl she'riyatida imajizm ifodasi	225
Одилова Г.	Болалар адабиётида глуттоник дискурс таржимасида услуб ва маъно адекватлиги	229
Mizrabova J.I.	Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" nomli asari tarjimalarida kalamburning qayta voqelantirishdagi muammolari	235
Эльманова М.Т.	Проблема семейных ценностей в романах Джойс Кэрол Оатс "Мать, пропавшая без вести" и "Мы были Малвэнами"	245
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Narziyeva D.I.	Mashrab devonlari nashrlaridagi tafovutlar	249
"NAVOIY GULSHANI"		
Amonova Z.Q.	Yuzungda zarvaraq har yonki lutfi benihoyatdur	253
PEDAGOGIKA *** ПЕДАГОГИКА *** PEDAGOGICS		
Burxonova M.X.	Tibbiy madaniyat tushunchasining shakllanish tarixi	255
Sariyev R.Sh.	Chizmachilik fanida ijodiy loyihalash faoliyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari	259
Xodjayev R.I.	Bokschilarni tayyorlashning psixo-fiziologik xususiyatlari	263
TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY		
Ражабова Д.Я.	Бухоро амирлигидаги сунний-шиа ихтилофлари тарихидан	267

**INGLIZ HAMDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI SEHRLI BUYUMLAR ORQALI
MILLIY MADANIYATNING IFODALANISHI**

Djumayeva Nozima,
Buxoro davlat universiteti
Ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro, O'zbekiston
85nozimadjumayeva85@gmail.com

Annotatsiya. *Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida turli sehrlilarning G'arb va Sharq an'analari asosida obrazlantirilishiga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Insoniyat tafakkurining ilk mahsuli bo'lmish ertaklardagi sehrlilarning obrazlarining tasviri va talqini, motivatsion xususiyatlari va poetik vazifalarini antropotsentrik paradigma asosida ochish, tilsim predmetlar yordamida asardagi milliy-madaniy olam manzarasining ifoda etilishini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi sehrlilarning xalq milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sehrlilarning, magiya, g'aroyib buyumlar, milliy-madaniy xususiyatlar, qadriyatlar, ingliz madaniyati, o'zbek madaniyati, diniy qadriyatlar.*

Аннотация. *Всегда был большой интерес к изображению различных магических предметов в английских и узбекских народных сказках на основе Западных и Восточных традиций. Описание и интерпретация образов волшебных предметов в сказках, являющихся первопродуктом человеческой мысли, их мотивационных свойств и поэтических функций на основе антропоцентрической парадигмы имеет большое значение в анализе выражения национально-культурной картины мира в произведении с помощью магических предметов. В данной статье описывается значение волшебных предметов в английских и узбекских народных сказках в выражении национально-культурных ценностей народа.*

Ключевые слова: *волшебные сказки, волшебство, диковинные предметы, национально-культурные особенности, ценности, английская культура, узбекская культура, религиозные ценности.*

Abstract. *In English and Uzbek folk tales, there has always been a high interest in the depiction of various magical objects based on Western and Eastern traditions. The description and interpretation of the images of magical objects in fairy tales, which are the first product of human thought, their motivational properties and poetic functions based on the anthropocentric paradigm, is of great importance in the analysis of the expression of the national-cultural world scene in the work with the help of magical objects. This article describes the significance of magical objects in English and Uzbek folk tales in expressing national and cultural values of the people.*

Key words: *fairy tale, magic, strange objects, national cultural characteristics, values, English culture, Uzbek culture, religious values.*

Kirish. *Asrlar osha rivojlanib kelayotgan an'analari, udumlar, urf-odatlar va qarashlar har bir xalq ertaklarida o'ziga xos tarzda aks ettirilgani kuzatiladi. Sehrlilarning ertaklarda har bir xalqning tarixi, madaniyati, turmush tarzi, marosimlari, e'tiqodiy qarashlari namoyon bo'ladi. Shunisi bilan ular o'sha xalqning madaniyatini o'rganishda muhim manba vazifasini o'tay oladi.*

Ertak janri barcha xalqlarning og'zaki ijodida mavjud bo'lib, har bir xalqning umuminsoniy fazilatlarini, olijanob qarashlari, qadriyatlarini, yuksak orzu-intilishlarini o'ziga xos milliy ruhda ifodalaydi. Jumladan, o'zbek xalq ertaklarida xalqimizning o'tmish va kelajak maishiy turmushi haqidagi qarashlari, axloqiy me'yorlari, ruhiy olami, o'y-istaklari, orzu-armonlari, shuningdek, jonajon diyorimizning tabiiy iqlimi, geografik muhiti, hayvonot va nabotot olami ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanilgan holda badiiy obrazli tarzda aks ettirilgan. Shu vajdan har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, iymon-e'tiqodini boshqa qarodosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini,

urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

O'ziga xos milliylik va madaniyat sohibi bo'lgan ingliz xalqining ham folklorida milliylik va o'zgacha madaniyat belgilari, tarix, san'at, urf-odatlar namoyon bo'ladi. Angliya madaniyati Angliya va ingliz xalqining madaniy me'yorlari bilan belgilanadi. Angliyaning Birlashgan Qirollikdagi nufuzli mavqeyi tufayli ingliz madaniyatini butun Birlashgan Qirollik madaniyatidan farqlash ba'zan qiyin bo'lsa-da, biroq Anglo-Sakson davridan beri Angliya Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya madaniyatidan tashqari o'ziga xos madaniyatga ega bo'lib kelgan. Yuqori o'rta asrlarda ertaklar Britaniya an'alaridan, xususan, Artur afsonalaridan kelib chiqqan. Qirol Artur, Merlin, Ekskalibur haqidagi ertaklar bunga yaqqol misoldir. Bu kabi hikoyalar Monmauntning "Britaniya qirollari tarixi" kitobidan ham o'rin olgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqotimiz obyekti ingliz va o'zbek xalq ertaklari bo'lib, ertaklardagi xalq milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalovchi sehrli predmetlar tahlilga tortildi. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, ligvokulturologik, etnofolkloristik metodlardan foydalanildi.

Xalq og'zaki ijodidagi sehrli predmetlar, odatda, xalqning milliy xususiyatlarini, madaniyati va qadriyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ko'pgina xalqlar folklorida *sehrli uzuk, sehrli qilich, sehrli pichoq, sehrli oyna, sehrli tayoq, ochil dasturxon, qaynar xumcha, ur to'qmoq, sehrli nay, uchar gilam, sehrli chiroq, sehrli taroq* kabi qator tilsim predmetlarni uchratish mumkin. Ingliz hamda o'zbek xalq sehrli ertaklari syujeti tarkibida uchraydigan g'aroyib, tilsimli predmetlar orasidagi ayrim o'xshashliklar xususida to'xtalish mumkin. Shu bilan birga, G'arb va Sharq madaniyati va qadriyatlarini namoyon etuvchi ikki xalq ertaklarida o'ziga xos milliylik va madaniyat bilan bog'liq sehrli predmetlar ham uchraydiki, ular xalqning milliy-madaniy xususiyatini yaqqol ko'rsatib turadi.

Natijalar va ularning tahlili. O'zbek xalq ertaklarida *sehrli kovush, paranji, kuloh, piyola, supra, po'stin, dutor, nay, kulcha, buloqi* kabi milliy xususiyatga ega buyumlar obrazlantirilgan bo'lsa, ingliz ertaklarida ingliz va Yevropa madaniyatidan darak beruvchi *sehrli arfa, dudka, karnay, pech, ingliz milliy nonlari Jonni keyk, Bennok, ingliz puddingi*, o'zbeklarda uchramaydigan *sehrli tayoqcha* kabi buyumlarning obrazlantirilgani kuzatiladi.

"Weardale fairies" ertagida *sehrli dudka, baraban* va *skripkada* chalinayotgan g'amgin musiqaning ta'siridan ertak qahramoni qo'rquv ketishi, quloqni kar qilar darajada ta'sirli va miyaga juda ham yomon ta'sir qiladigan bu kuy qo'rquvni keltirib chiqarishi tasvirlangan. Musiqaga qo'shimcha tarzda shamolning ovozi va qushning yig'isi ham eshiltildi: "Even in broad daylight it wasn't long before the child heard eerie music playing on *pipe, fiddle* and *drum*. The tune was so wild and hauntingly exquisite that she found it quite impossible to ignore". Ertakdagi dudka, baraban va skripka obrazlari o'zbek ertaklarida uchramaydi.

Skripka X asrda Yevropada paydo bo'lgan bo'lib, Angliyaning folklor qo'shiqlari shu asbob bilan kuylangan. Mamlakatning Nortumbriya, Kambriya va Leyklend kabi hududlarida bu asbobdan foydalanish keng tarqalgan. Fiddle so'zi qadimgi ingliz tilidan olingan.

Baraban ham o'rta asrlarda Yevropada paydo bo'lgan musiqa asbobi bo'lib, o'zbek xalqining do'mbirasiga o'xshab ketadi. O'zbek ertaklarida do'mbira musiqa asbobi ishtiroki kuzatildi, lekin u sehrli emas, oddiy obraz sifatida berilgan.

Kelib chiqishi Gretsiya davlati bo'lgan, asosan, Yevropa va Angliya madaniyatiga xos *sehrli dudka* obrazini "Pied Piper of Franchville" va "Tattercoats" ertaklarida kuzatildi. "Jack the giant killer" ertagida ham chalinganda jodudan xalos etish kuchiga ega *sehrli karnay* "Binnorie", "Jack and the Beanstalk" hamda "Lord of Pengerswick" ertaklarida *sehrli arfa* obrazi qo'llanilgan bo'lib, ular milliy madaniyatni namoyon etuvchi predmetlar sirasiga mansubligi bilan e'tiborni tortadi [3]

Milliy cholg'u asboblarmizdan biri dutor ham o'zbek xalq ertagida obrazlantirilgan. Ma'lumki, dutor O'rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobidir. Fors tilidan "ikki tor" deb tarjima qilinadi. Dutor tut, o'rik, yong'oq yog'ochlaridan yasaladi. Dutor uchun o'zbek xalqi orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bularga "Munojot", "To'rg'ay", "Farg'onacha", "Tanovar", "Rohat", "Jigarpora", "Dilxiroj", "Qo'shtor" kabilar misol bo'la oladi.

"Uch avliyo" ertagida sehrli dutor obrazi keltirilgan bo'lib, bu dutorni chalganda, uning kuyini eshitgan kishi mast bo'lib uxlab qolardi: "Keyin qiz qo'lga tilla *dutorini* olib mashq qila ketibdi. Bir mahal hamma mast bo'lib mudrab uyquga ketayotgan emish. Qiz mashqni to'xtatibdi".

Milliy taom va yeguliklar ham madaniyat va an'alar belgisi bo'la oladi. O'zbek ertaklarida o'zbeklarning milliy noni *kulcha* obrazlantirilgan bo'lsa, inglizlarda Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning

an'anaviy nonlaridan bo'lmish *Johny Cake (Jonni keyk)*, *Bannock (Bennok)* va *Pudding (ingliz puddingi)* obrazlantirilgan.

O'zbeklar hayotiga tegishli uy-ro'zg'or predmeti bo'lgan, inglizlar turmushida kuzatilmaydigan sehrli sandiq obrazini bir nechta o'zbek xalq ertaklarida kuzatish mumkin. Odatda, qizlar turmushga chiqqanda, ularga oila ramzi sifatida sandiq beriladi. Unga kelinlik sepi solingan bo'ladi. "Zumrad va Qimmat" ertagida sehrli kampir mehnatsevar, oqko'ngil Zumradga qizil sandiq beradi. Uning ichidan qimmatbaho toshlar, taqinchoqlar chiqadi. Dangasa Qimmatga berilgan oq sandiqdan esa oq ilon chiqib, uni va onasini yutib yuboradi. "Duradgor bilan tikuvchi" va "Kenja botir" ertaklarida ham sandiq obrazidan foydalanilgan.

"Jonon piyola" ertagida hammayoqni yorug' qiladigan podshohning jonon piyolasi sirli xususiyatga ega bo'lib, podshoh uni juda ham qadrlaydi. Bu piyolasi singanidan keyin podshoh yana bir piyola yasattiradi. Uning bir xislati: o'ng tomonga qarab aylantirilsa, shu xildagi piyoladan yettita piyola bo'lib qolar ekan. Chap tomonga qarab aylantirilsa, yettita piyola bitta bo'lib qolar ekan. Shu sehrli xususiyati bilan piyola uni yasagan kulolni o'limdan saqlab qoladi. Piyola, asosan, O'rta Osiyo xalqlari tomonidan ishlatiladigan, choy ichish uchun mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumi bo'lib, milliy xususiyatga egadir.

Ayrim sehrli predmetlar obrazi ertakning milliy xususiyatini yanada bo'rttirishga xizmat qiladi. *Sehrli sandal* shunday milliy xususiyatni aks ettiruvchi obrazlardan biridir. Masalan, "Sehrli sandal" ertagida hikoya qilinishicha, "Bir kampirning sandali bor ekan. U sehrli sandal ekan. Uning o'ziga aytiladigan so'zi bo'lib, shuni aytsa, sandal yuqoriga chiqib, hamma yoqni aylantirar ekan. O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan bu motiv rus xalq ertaklaridagi an'anaviy "uchar pech" obrazi ishtirok etadigan motiv bilan mushtaraklik kasb etadi, ularni shu morfologik vazifadoshligiga ko'ra intertip motiv sifatida qayd qilish mumkin. Faqat ular har bir xalqning milliy turmush tarziga xoslikni o'zida mujassamlantirib kelishi bilan bir-biridan farqlanadi, xolos.

O'zida milliy xususiyatni namoyon etuvchi sehrli predmetlardan yana biri *supradir*. Undan o'zbek ayollari un elash va xamir qorishda supradan foydalanishadi. Supra bilan bog'liq xalq irim-sirimlari va e'tiqodiy qarashlari borki, ular ertaklarda "sehrli surpacha" obrazi paydo bo'lishiga ta'sir o'tkazgan. U ertaklarda har qanday tilakni ro'yobga chiqaruvchi; o'likni tiriltiruvchi vazifalarda badiiy talqin etiladi. Masalan, "Elzod bilan Gulxumor" ertagida sehrli surpacha obrazi "Uning bir xislati bor" deb, alohida ta'riflangan. Surpachaning otadan o'g'ilga meros qilib qoldirilganligi aytilgan. Surpacha insonlardek gapni tushunadi. Kimki uni oldiga qo'yib: "Surpachaxon, surpacha, otamdan qolgan merossiz, aytganimni qilarsiz" desa, shunda surpacha har qanday xohishni bir pasda muhayyo qiladi. Ammo bu sirni hech kimga, hatto yaqin bo'lgan kishiga ham aytish taqiqlanadi. Qahramon suprani bir daqiqa bo'lsa ham, yonidan qo'ymasligi, hatto kechasi boshiga qo'yib yotishi, kunduzi qo'ynida olib yurishi shart. Chunki u ehtiyotsizlik qilib, supradan ayrilib qolsa, bu dunyodan xoru zor bo'lib o'tishi mumkinligi aytiladi.

Ertakda supraning gapni tushunadigan qilib jonlantirilishi bejiz emas. Chunki hayotda ham suprani yoyganda va yig'ishtirayotganda unga maxsus sehrli so'zlar – olqishlar aytib murojaat qilinadi. Sehrli supra ertak voqealari davomida qahramonning iltimosiga ko'ra, uning tutingan onasi bo'lmish o'lgan kampirni tiriltiradi.

"Kambag'al qiz" ertagidagi *sehrli po'stak* obrazi qahramonni xohlagan joyiga eltib qo'yish xususiyatiga ega. Supra va po'stak sinonim so'zlar bo'lib, har xil nom bilan kelsa-da, bitta predmetni ifodalaydi [5,125]

Ertaklarda u yoki bu ijtimoiy davrga xos voqelik xalq turmushi, xalq manfaatlari va kechinmalari, orzu-armonlari bilan uzviy aloqadorlikda badiiy ifoda etiladiki, bundan ularning ijtimoiy mohiyatga egaligi yaqqol ko'rinadi.

"Ur to'qmoq" ertagidagi "ochil" deganda turli nozu ne'matlar bilan to'ladigan *ochildasturxon* obrazi ham o'zbek milliy madaniyatini namoyon etadi. O'zbeklarda taom tanovul qilish uchun yoziladigan maxsus mato bo'lmish dasturxon milliy realiyalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek xalqida dasturxon to'y va ma'rakalarga borishda taom va boshqa yeguliklar o'rab borish uchun ishlatiladi.

Milliy oyoq kiyimlarimizdan bo'lmish *kovush*ning obrazlantirilishi "Eng katta zulm" ertagida kuzatildi. Ertakdagi sehrli tilla kovush faqat o'z egasiga loyiq kelish xususiyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu motivni ingliz xalq ertagi "Cindermaid" da ham kuzatish mumkin. Unda sehrli tilla tuflari obrazi keltirilgan. Milliy xarakterdagi sehrli predmetlar obrazi ma'lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining badiiy in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning milliy tabiati o'sha millatning hayoti, tarixi, madaniy va adabiy an'analari asosida obrazlantiriladi [5,123]

"Orziston bilan Qambarjon" ertagida sehrli paranji obrazi o'z ichida odamni yashirish xususiyatiga ega bo'lib keladi [5, 103].

Xalq ertaklarida *sehrli ro'mol* timsolini ham uchratish mumkin. Masalan, “Bulbuligo'yo” ertagida tasvirlangan sehrli ro'molning g'aroyibli shundaki, u inson gapini tushunib, uning topshiriqlarini bajaradi.

“O'tinchi chol” ertagidagi obrazlantirilgan *sehrli beshik* obrazi ham milliy xarakterga ega predmet ekanligi bilan e'tiborni tortadi.

Beshik chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo'ljallangan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama bo'lib, asosan tut, tol va boshqa yog'ochdan yasaladi. Beshik qadimdan o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg'iz va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Qadimgi manbalarda, xususan, “Devonu lug'otit-turk” da tilga olib o'tilgan.

Ertakda beshik yasalgan terak daraxti sehrli bo'lgani uchun beshik ham sehrli bo'lib qoladi va unga belangan bolani siqib o'ldiradi.

“Ha, podshohzoda, kalla deb qovoqni kiyib olgan ekansiz-da. Bitta jodugar kampirning so'ziga kirib, bola qilganingizga rahmat. Quduqning ichidan chiqqan qora ot men bo'laman, bilmay aravaga qo'shdingiz. Qirq odimni bir odim qildim. Qora otni jodugarga so'yib berganingizda uch terak bo'lib ko'karib chiqdim. Beshik bilan eshik qildirdingiz, beshikdagi bolani qisib o'ldirdim, eshikda kampirni siqqanimda ajratib oldingiz – bilmadingiz, uyalganimdan qo'yib yubordim” [5,78].

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turganidek, beshikning bolani siqishi shahzodaning sevgilisi parizodning sehri natijasidir.

Shuningdek, “Kulsa – gul, yig'lasa – dur” ertagida Sharq xalqlariga xos bezak asbobi *sehrli buloqi* obrazi berilgan. “Podshoning kelini buloqini burniga taqibdi. Kelin kunduzi buloqini taqqanda, quduqda qolgan o'tinchining qizi o'libdi, kechqurun burnidan buloqini olib qo'yganda tirilibdi” [9, 4].

Buloqi O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida Markaziy Osiyoga kirib kelgan burunga taqiladigan zirak bo'lib, o'sha paytlarda uni taqish ayollar orasida keng tarqalgan bo'lgan. Hozirda buloqi taqish urfdan chiqqan.

Xalq ertaklaridagi g'aroyib buyumlar milliylik va madaniyatni ham eksplitsit, ham imlitsit jihatdan ifodalaydi. Yuqorida tahlil qilingan predmetlarni milliy realiyalar yoki etnografizmlar deb atashimiz mumkin. Ularda milliylik, G'arb yoki Sharq madaniyati yaqqol ko'rinib turadi. Lekin ertaklarda shunday buyumlar uchradiki, ularning milliylik kasb etishi yoki madaniy qadriyatlarini aks etishi ular bilan aloqador motivlar, marosimlar, tarixiy voqealar, diniy qadriyatlar va joy nomlaridan anglashildi.

Sehrli tayoqcha obrazi shunday mo'jizaviy buyumlardan biri bo'lib, asosan, g'arb ertaklari, xususan, ingliz xalq ertaklarida uchraydigan tilsim predmet bo'lib, o'zbek folklorida bunday obraz uchramadi. Folklorshunoslar Ernest va Yoxanna Leynerlarning fikriga ko'ra, sehrli tayoqlardan foydalanish motivining asoslari Injildagi diniy afsonalarga borib taqaladi.

Aytilishicha, o'tmishda professional sehrgarlar Horunning tayog'i ramzidagi novdadan sehr kuchi timsoli sifatida foydalanishgan. Bu novda kerakli vaqt va zarur sharoitda sehrli tayoqqa aylanib, odamlarga yordam berishga ishonilgan.

Muso payg'ambar haqidagi afsonalarda uning mo'jizaviy kuchga ega bo'lishiga sehrli asosi sabab bo'lganligi aytiladi. Muso alayhissalom u orqali Qizil dengizni ikkiga ajratib, undan oson kechib o'tgancha, bostirib kelayotgan dushmandan xalqini eson-omon qutqargani, toshdan suv chiqqani bayon etiladi. Horunning ham sehrli aso tayog'i bo'lgani, uni uloqtirganda ilonga aylangani va bu ilon atrofda yig'ilgan boshqa ilonlarni yutib yuborgani hikoya qilinadi. Keyinchalik Misrda balolarni boshlashga sababchi bo'lgan bu qudratli tayoq asonining Ahd sandig'ida xavfsiz saqlangani aytiladi.

Sehrli tayoq obrazi qadimgi yunon yozuvchisi Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida ham uchraydi. Bunda Gomer novda degan ma'noni anglatuvchi “rabdos” so'zini ishlatgan, lekin bu so'z kichik hajmda anglashiladigan tayoqchani emas, balki katta va qalinroq hajmdagi tayoqni anglatadi.

Gomer sehrli tayoqchalarni uch xudo: Germes, Afina va Sirtseya ishlatganini yozadi. Masalan, “Iliada”da Germes sehrli tayoqchadan foydalanib, odamlarni uxlatadi yoki uyg'otadi. “Odisseya”da esa Afina sehrli tayoqcha yordamida Odisseyini kekka qilib, keyin yana uni yoshartiradi. Sirtseya sehrli tayoqcha yordamida Odissey odamlarini cho'chqaga aylantiradi. Ko'rinadiki, Gomer sehrli tayoqcha obrazidan ma'budlarning kuch-qudratini bo'rttirish maqsadida foydalangan. Bunda sehrli tayoqcha “evriltiruvchi” xususiyatga ega tilsim predmet sifatida ko'rsatilgan.

Ingliz xalq ertaklarida ham *sehrli tayoqcha* obrazi turli holatlarda bosh qahramonga ko'mak beruvchi, uni murod-maqsadiga, orzu-intilishlariga yetkazuvchi vazifasida talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, “Red Ettin” nomli ingliz xalq ertagida sehrli tayoqcha obrazi keltirilgan. U bosh qahramonga sehrgar tomonidan hadya qilinadi. Yigit dahshatli hayvonlar yashaydigan joyga kelib qolganida, sehrli tayoqcha yordamida ularni yengadi va yo'lida davom etadi.

“Kate Crackernuts” ertagida bosh qahramon Keytning opasi boshi sehr tufayli qo'yning boshiga aylangan bo'ladi. Keyt sehrli tayoqchasini o'ynab turgan pari bolaga duch keldi va shu tayoqcha bilan uch marta ura, opasi yana o'z holiga qaytishini bilib qoladi. Shundan so'ng Keyt sehrli tayoqchani qo'lga kiritib, opasini tuzatadi [3,98].

“Three heads of the well” ertagida o'gay ona zulmidan charchagan malikaning qo'lga sehrgar chol sehrli tayoqcha tutqazadi. U qizga uning oldidan tikonli to'siq chiqishini va shu sehrli tayoqcha bilan uch marta ura, bu to'siq ochilib, yo'lida davom etishi mumkinligini aytadi. Xuddi aytilganidek, qiz katta tikanli to'siqqa duch keladi va sehrli tayoqchasi yordamida uni kesib o'tadi [3, 56]

“Saint George of Merry England” ertagida sehrli tayoqcha jodugar tomonidan bosh qahramon Jorjga o'zi bilan qolishi uchun pora sifatida beriladi. Ertak qahramoni esa shu sehrli tayoqcha yordamida sehrlangan hudud hukmdorligini qo'lga kiritadi [2, 35].

Sehrli tayoqcha ertak bosh qahramoni bilan bevosita bog'liq holda harakatlanadi. Ertak nomi ham Angliyaning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Avliyo Jorj Angliyaning homiy avliyosi, milliy madaniyati ramzi bo'lib hisoblanadi. Avliyo Jorj kuni ham Angliyada milliy bayram sifatida nishonlanadi.

“Prince Prigio” ertagida turli xildagi sehrli predmetlar obrazi o'rin olgan. Ertakdagi sehrli predmetlar ko'proq milliylikni ko'rsatish maqsadida ishlatilgan. Mazkur asarning eng ahamiyatli jihati shundaki, unda Angliya tarixi bilan aloqador ko'p narsalar tasvirlangan. “Prince Prigio” ertagida bosh qahramon bo'lgan shahzoda cho'qintirilganda, unga parilar tomonidan bir nechta sehrli predmet sovg'a qilinadi. Lekin shahzodaning onasi sehrli predmetlarga umuman ishonmaydi. Bu sehrli predmetlar: hech qachon bo'shamaydigan sehrli hamyon, oyoq kiyimi, kiyganda ko'rinmas qiladigan, tilaklarni bajaradigan qalpoq, xohlagan yeriga eltadigan gilam, ajdarni topishga yordam bera oluvchi fil suyagidan qilingan durbin va hamma narsani kesadigan qilich edi. Ertakda bu sehrli predmetlar Pantoflia davlatini qutqarish va boshqarishda yordam beradi. Qahramon uchar gilamni sayohat qilish uchun, fil suyagidan qilingan sehrli durbinni ajdarni topish uchun, qorong'ulik qalpog'ini ko'rinmas bo'lib harakatlanish uchun, qilichni esa shoxlar va dumlarni kesish uchun ishlatadi. Bu buyumlar Prijioga kelajakda qirol bo'lishga yordam beradi. Ertakdagi cho'qintirish va cherkov bilan bog'liq holatlar Angliyada keng tarqalgan xristian dini belgilaridir [2,54].

“Prince Ricardo of Pantouflia” ertagida ham bosh qahramon Rikardo sehrli gilam, sehrli qilich, sehrli oyoq kiyimi kabi sehrli buyumlardan o'z ezgu maqsadlariga erishish uchun foydalanadi. Ertakda shahzoda Rikardo shahzoda Charlzga sehrli uzuk sovg'a qiladi. Uzukning sehrli xususiyati shunda bo'ladiki, uni taqqan kishiga hamma sodiq qoladi. Ertakda sehrli buyumlar bilan bog'liq motivlarning Angliya tarixi va qadriyatlarini bilan bog'liqligi e'tiborni tortadi.

Qirol Artur haqidagi ertaklardan biri bo'lgan “Drawing the Sword” ertagida haqiqiy Britaniya qiroliga tegishli Ekskalibur qilichi keltirilgan bo'lib, Artur uni toshdan sug'urib olishga muyassar bo'ladi. Ekskalibur qilichi bilan bog'liq taxtga egalik qilish, haqiqiy Britaniya qiroliga tegishlilik kabi motivlar qilichning spetsifik, ya'ni Angliya madaniyati va tarixiga xos xususiyatini namoyon etadi.

“Devil's bargain” (“Shayton kelishuvi”) ertagida sehrli kuchga ega, sehrli so'z va duolari bor kitob obrazi mavjud bo'lib, tug'ruq paytidagi og'riqni yengillashtiradigan yoki sevgan kishining ko'nglini olishga yordam beradigan duolar ushbu kitobdan o'rin olgan. Ertak qahramonlari shaytonni chaqirish duosini sinab ko'rish uchun o'qishadi va shayton (demon) paydo bo'ladi. “Master and his pupil” ertagida ham ruhlar olami sirlarini o'zida mujassam etgan kitob obrazi keltirilgan bo'lib, kitob bilan bog'liq demon, Beelzebub kabi tushunchalar xristian dini bilan aloqador, Injilda keltirilgan so'zlar bo'lib, inglizlarning diniy qadriyatlarini namoyon etadi.

“The Well of St.Ludgvan” ertagida sehrli suvning obrazlantirilishiga aloqador motivlar xalqning diniy qadriyatlaridan dalolat beradi.

“The saint prayed over the dry earth, which was beneath him, as he knelt on the church stile. The saint now prayed that all children baptised in the waters of this well might be protected against the hangman and his hempen cord; and an angel from heaven came down into the water, and promised the saint that his prayers should be granted. The priest stood at the baptismal font, the parents, with their friends around. The saint proceeded with the baptismal ceremonial, and at length the time arrived when he took the tender babe into his holy arms. He signed the sign of the cross over the child, and when he sprinkled water on the face of the infant its face glowed with a divine intelligence. The priest then proceeded with the prayer; but, to the astonishment of all, whenever he used the name of Jesus, the child, who had received the miraculous power of speech from the water, pronounced distinctly the name of the devil, much to the consternation of all present”.

Berilgan parchadagi cherkov, cho'qintirish, xoch kabi so'zlar fikrimizning yorqin dalilidir.

Hayot, geografik muhit, madaniy turmush milliylikni o'zida to'la ifoda etib keladigan xususiyatlar sirasiga kiradi. H.Yusupova ta'kidlab o'tganidek: "Milliylikning eng aniq aks ettiruvchilari xalq ertaklari hisoblanadi".

Bizningcha ham, xalq ertaklari, birinchidan, o'zi mansub millatning milliy ruhini, ikkinchidan, milliy til xususiyatlarini o'zida saqlab qoluvchi muhim manbalardan biridir. Shuning uchun ularda milliylik yorqin aks etib turadi. Qaysi bir xalq ertagi bo'lmasin, uning syujetini u yoki bu marosimning badiiy tasviri va ifodasi ham tashkil etishi kuzatiladi. Bu esa ertaklarda xalqning milliy qiyofasi, burungi hayoti gavdalanishidan darak beradi. Shuning uchun ertaklarga nafaqat folklorshunos, balki tarixchi, udumshunos, tilshunoslar ham qiziqish bilan yondashadilar.

Mashhur tilshunos olim V.Gumboldt har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [7,5]. Xuddi shu narsa xalq tilining mahsuli bo'lgan ertaklarda yanada yaqqol ko'rinadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, folklorning boshqa janrlari qatori ertak ham o'zida milliylikni mujassamlantirib keladi. Ertaklar qaysi xalqqa mansub bo'lsa, o'sha xalqning tarixi, marosim va urf-odatlarini, e'tiqodiy qarashlari, ma'naviy qadriyatlarini, madaniyati, yashash tarzi, turmush predmetlarini, bir so'z bilan aytganda, boshqalardan farqli tomonlarini aks ettirib kelishi jihatidan milliylik kasb etadi. Ayniqsa, xalqning milliy ruhiyatini to'la saqlab qolish imkoni ertaklarda kengligi bilan ajralib turadi. Har ikkala xalq ertaklaridagi sehrli predmetlar obrazi shu xalqlarning yashash o'rni va sharoiti, milliy qadriyat va an'analari, marosimu urf-odatlarini, yiqqan poetik tajribalariga muvofiq tasvirlanadi. Ertaklardagi sehrli buyumlar xalq tarixi, madaniyati va uning ruhiy dunyosini aks ettirishga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida milliy realiyalar ko'rinishidagi sehrli predmetlar, shuningdek, xalq milliyligi, madaniyati va qadriyatlarini implitsit ifodalovchi sehrli buyumlar obrazlantirilgan va ular ertakdagi milliy olam manzarasini yaratishda xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR :

- 1.Fang D. *Magical objects in Victorian literature. Enchantment, Narrative Imagination, and the Power of Things. Dissertation for the degree of doctor of philosophy, 2015.*
- 2.Hartland E.S. *English fairy and other folk tales.* – London, 2018. P.133.
- 3.Jacobs J. *English fairy tales and more English fairy tales.* – London, 2002. P. 156.
- 4.Zipes J. *The Irresistible Fairy Tale– New York: Routedledge, 2007.* – 250 p.
5. *Ўзбек халқ эртаклари. I-III том.* – Тошкент: Шарқ, 2007. – 383 б.
- 6.<https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-ertaklari/>
- 7..Rasulov, Z. (2021). *Reduction as the way of the language economy manifestation. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). извлечено из http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943*
- 8.Yunusova, A. (2023). *Thinking, reading and writing critically. центр научных публикаций (buxdu.uz),27(27).http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733.http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733.*
9. Djumayeva, N. *Comparative analysis of magical jewellery and ornaments in english and uzbek fairy tales. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No:2581-4230.VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021,138-142. <https://media.neliti.com/media/publications/347771-comparative-analysis-of-magical-jeweller-8838f05c.pdf>*
10. Kobilova Aziza Bakhridinovna. *Semantic and lingua-cultural features of English and Uzbek medical periphrases // International Journal on Integrated Education. ISSN (Online): 2620-3502, Vol.5, Issue 6, 6-June 2022. P.162-167. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/3144>*
- 11.Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2022). *The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 6, 65–70. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/799>*